

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT STATISTIKA
QO‘MITASI**



**O‘ZBEKISTON
RESPUBLIKASIDA
XIZMATLAR SOHASINING
RIVOJLANISHI**

**2022- YILNING
YANVAR-SENTABR OYLARIDA**

Dastlabki ma’lumotlar

Xizmatlar sohasi



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi –
253 840,0 mlrd. so'm



Xizmatlar sohasida kichik biznesning
ulushi – **49,1 %**



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi – **7 141,1 ming so'm**



Xizmatlar sohasini har tomonlama rivojlantirish iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash, samarali bandlik va aholi turmush darajasini oshirishning dolzarb masalasidir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **49 111,0 mlrd. so'mga** oshib, **253 840,0 mlrd. so'mga** yetdi.


Taqqoslama ekvivalentda 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga (**119,5 %**) nisbatan o'sish sur'ati **115,4 %** ni tashkil etdi.

Diskret qiymatlar bu – qiymatlari faqat ma'lum daqiqalarda, ma'lum vaqt orali-g'ida (oy, chorak, yil) belgilangan, o'lchadigan, hisoblangan ko'rsatkichlar.


2021- yil sentabr oyiga nisbatan (25,7 trln. so'm), 2022- yil sentabr (diskret oy) uchun taqdim etilgan bozor xizmatlari hajmi (32,2 trln. so'm) 6,5 trln. so'mga oshdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil sentabr oyidagi xizmatlar hajmi 2020- yil sentabriga nisbatan 5,3 trln. so'mga oshgan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, trln. so'm



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, trln. so'm



2022- yilning III diskret choragi yakunlariga ko'ra, ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **93,3** trln. so'mni tashkil etib, 2021- yilning III diskret choragiga nisbatan (**74,0** trln. so'm) hajmi **19,3** trln. so'mga oshdi.

Taqqoslash uchun:

2021- yil III diskret choragi- ning hajmi 2020- yilning shu davriga nisbatan **17,5** trln. so'mga yuqori bo'lgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ushbu xizmatlarning ulushi **25,1** % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy xizmatlar (**23,1** %), transport xizmatlari (**21,9** %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**6,4** %), shuningdek, ta'lim sohasidagi xizmatlar bo'yicha (**4,1** %) ham qayd etildi.

Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **1,7** % ga yetdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-sentabr oylarida umumiy savdo xizmatlari **25,6 %**, moliyaviy xizmatlar **21,5 %**, transport **23,2 %**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **6,3 %** va ta'lim **4,0 %** ni tashkil etdi. Ushbu davrda kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlarining ulushi ham minimal bo'lgan – **1,7 %**.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da (2022- yil yanvar-sentabr)





Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmini o'sishining asosiy omili moliyaviy xizmatlarning **29,6** % ga o'sishi (ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining o'sishiga qo'shgan hissasi **6,4** punkt), transport xizmatlari – **11,9** % ga (o'sishga qo'shgan hissasi **2,8** punkt), savdo xizmatlari – **8,2** % ga (o'sishga qo'shgan hissasi **2,1** punkt), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari – **24,1** % (oshirishga qo'shgan hissasi **1,5** punkt), boshqa xizmatlar – **13,7** % (oshirishga qo'shgan hissasi **0,5** punkt), ta'lim xizmatlari – **12,1** % (oshirishga qo'shgan hissasi **0,5** punkt), shuningdek, yashash va ovqatlanish xizmatlari – **15,3** % ga, ko'rsatilgan xizmatlarning umumiy hajmining o'sishiga qo'shgan hissasi **0,4** punktni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmini oshirishga xizmat turlari bo'yicha qo'shgan hissasi, f.p.





Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm		O'sish sur'ati, % da
	2021- y.	2022- y.	
Xizmatlar – jami	204 729,0	253 840,0	115,4
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	12 814,0	16 351,4	124,1
Moliyaviy xizmatlar	43 996,6	58 599,1	129,6
Transport xizmatlari	47 490,4	55 557,4	111,9
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	26 116,7	29 781,2	107,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	6 041,9	8 088,7	115,3
Savdo xizmatlari	52 510,7	63 761,0	108,2
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	5 840,9	6 939,0	110,7
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	8 192,2	10 302,8	112,1
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	3 830,4	4 646,5	109,9
Ijara xizmatlari	3 889,7	4 588,3	110,2
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	3 393,3	4 205,5	108,4
Shaxsiy xizmatlar	4 901,4	6 269,3	107,1
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	4 356,5	5 245,9	108,8
Boshqa xizmatlar	7 471,0	9 285,1	113,7

Aholi tomonidan xizmatlar sohasining har xil turlariga bo'lgan talabning barqaror o'sishi va davlat tomonidan amalga oshirilayotgan infratuzilmani (ijtimoiy, transport-kommunikatsiya, savdo va boshqalar) rivojlantirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar xizmat ko'rsatish sohasining barcha tarmoqlarini jadal rivojlantirishni ta'minladi.


Masalan, savdo ibtidoiy taqsimlash mexanizmidan iste'molchiga yo'naltirilgan bozor talabini yaratish jarayonining faol ishtirokchisiga aylandi.

Hozirgi vaqtda savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiy hajmining muhim qismini tashkil etadi.




25,1 2022-yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida savdo xizmatlari ulushi

O'sish sur'ati,
% da



Xizmatlar hajmi,
trln. so'm



Savdo xizmatlarining tarkibi, % da
(2022- yil yanvar-sentabr)

1. Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar
2. Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)
3. Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda



Hududlar kesimida savdo xizmatlarining tarkibi, % da
(2022- yil yanvar-sentabr)

Hududlar kesimida savdo xizmatlarining tarkibi, % da (2022- yil yanvar-sentabr)	Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda	Ulgurji savdo xizmatlari	Chakana savdo xizmatlari
Qoraqalpog'iston Resp.	7,7	16,3	76,0
Andijon	8,3	9,3	82,4
Buxoro	5,7	27,3	67,0
Jizzax	8,8	9,7	81,5
Qashqadaryo	4,8	9,5	85,7
Navoiy	8,6	8,3	83,1
Namangan	5,6	18,7	75,7
Samarqand	7,9	16,1	76,0
Surxondaryo	4,5	13,0	82,5
Sirdaryo	6,1	22,7	71,2
Toshkent	9,9	19,2	70,9
Farg'ona	8,2	19,4	72,4
Xorazm	9,1	15,6	75,3
Toshkent shahri	7,6	48,9	43,5


Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasida dengiz transportidan tashqari barcha zamonaviy transport turlari mavjud.

Respublikada temir yo'l va avtomobil yo'llari tarmog'i, xalqaro aeroport majmualari rivojlangan. Shu bilan birga, davlat hududi bo'ylab kesib o'tadigan va mamlakatning xalqaro va tranzit transportiga bo'lgan ehtiyojini ta'minlaydigan havo yo'llari mavjud.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida transport xizmatlari hajmi **55 557,4** mlrd. so'mni tashkil etdi, ularning o'sishi 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **11,9** % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ushbu turdagi xizmatlarning ulushi ustun bo'lib qolmoqda – **21,9** %.



*O'sish sur'ati,
% da*



*Xizmatlar hajmi,
trln. so'm*



Turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi, % da
(2022- yil yanvar-sentabr)




Transport xizmatlari (2022- yil yanvar-sentabr)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da
Qoraqalpog'iston Resp.	1 956,5	127,2
Andijon	2 502,5	108,9
Buxoro	2 366,1	106,3
Jizzax	844,9	105,0
Qashqadaryo	2 453,1	110,1
Navoiy	1 097,1	108,8
Namangan	1 796,8	108,8
Samarqand	3 868,0	108,5
Surxondaryo	1 367,3	111,0
Sirdaryo	480,7	106,1
Toshkent	4 307,1	108,2
Farg'ona	2 867,4	104,4
Xorazm	1 672,0	110,3
Toshkent shahri	8 763,2	118,8

Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi. Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli yuqori talabga ega hisoblanadi.


**Tashish turlari bo'yicha
avtomobil transporti xizmatlarining
tarkibi, % da**



**O'sish sur'ati,
% da**




**Xizmatlar hajmi,
trln. so'm**






Bank tizimining moliyaviy barqarorligini isloh qilish hamda mustahkamlash, pul-kredit siyosatini erkinlashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash mexanizmini takomillashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlashni yanada kengaytirish, real vaqt rejimida xizmatlar ko'lamini kengaytirish (Internet-banking, mobil banking) moliyaviy tashkilotlarning so'nggi elektron to'lov texnologiyalarini joriy etish tarmoqlari moliyaviy xizmatlarning o'sishiga ta'sir ko'rsatdi.




Moliyaviy xizmatlar (yanvar-sentabr)

Moliyaviy xizmatlarning hajmi **14 602,5** mlrd. so'mga oshdi va **58 599,1** mlrd. so'mga yetdi. Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida **23,1** % ni tashkil etdi. Jami moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati **129,6** % ni tashkil etdi.

O'sish sur'ati,
% da



Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm



*Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da
(2022- yil yanvar-sentabr)*



1. Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar


2. Sug'urta bo'yicha xizmatlar

3. Yordamchi moliyaviy faoliyat


Moliyaviy xizmatlar (2022- yil yanvar-sentabr)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da
Qoraqalpog'iston Resp.	1 620,0	122,5
Andijon	2 635,1	113,1
Buxoro	2 250,0	143,9
Jizzax	1 592,6	127,2
Qashqadaryo	1 981,3	124,2
Navoiy	1 406,3	112,9
Namangan	1 812,8	123,8
Samarqand	2 721,7	135,5
Surxondaryo	1 920,0	124,3
Sirdaryo	1 187,9	119,5
Toshkent	2 537,5	119,9
Farg'ona	3 555,1	152,7
Xorazm	1 564,8	123,2
Toshkent shahri	31 814,0	131,6

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida innovatsiyalarni joriy etish va ulardan samarali foydalanish korxonalarda boshqaruv va texnologik jarayonlarning samaradorligini oshirishga yordam beradi, iqtisodiyotning turli sohalarida mavjud bo‘lgan tovar va xizmatlar bozorini kengaytirish va yangilarini barpo etish, oxir-oqibatda aholi turmush sifatini yaxshilashga olib keladi.


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da
(2022- yil yanvar-sentabr)



O‘sish sur‘ati, % da



Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m





Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2022- yil yanvar-sentabr)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da
Qoraqalpog'iston Resp.	394,5	117,6
Andijon	604,2	126,0
Buxoro	450,4	119,9
Jizzax	291,8	122,1
Qashqadaryo	555,2	123,5
Navoiy	254,8	119,8
Namangan	534,0	123,8
Samarqand	765,7	123,3
Surxondaryo	442,8	126,2
Sirdaryo	204,4	120,4
Toshkent	610,2	127,6
Farg'ona	837,7	123,7
Xorazm	377,4	122,0
Toshkent shahri	10 018,3	124,6



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining yuqori o'sishi Toshkent (**27,6 %**), Surxondaryo (**26,2 %**) va Andijon (**26,0 %**) viloyatlarida hamda Toshkent shahrida (**24,6 %**) qayd etildi.

Ushbu xizmatlar hajmining nisbatan biroz o'sishi Qoraqalpog'iston Respublikasida kuzatildi – **17,6 %**.

Telekommunikatsiya xizmatlari (yanvar-sentabr)

O'sish sur'ati,
% da

Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm




Telekommunikatsiya xizmatlari (2022- yil yanvar-sentabr)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da
Qoraqalpog'iston Resp.	369,2	118,6
Andijon	582,1	126,5
Buxoro	411,9	121,1
Jizzax	247,2	125,1
Qashqadaryo	531,2	123,7
Navoiy	244,9	119,8
Namangan	493,9	124,7
Samarqand	713,0	123,2
Surxondaryo	421,3	126,8
Sirdaryo	195,9	123,2
Toshkent	522,5	127,1
Farg'ona	781,3	124,5
Xorazm	359,5	122,4
Toshkent shahri	4 741,8	115,9




OAV, kontent va AKT xizmatlari sektorlarining muqobil to'plami	Hajmi, mlrd. so'm	Umumiy hajmdagi ulushi, % da
Jami	17 239,0	100,0
shu jumladan:		
AKT xizmatlari sektori	15 771,6	91,5
<i>shu jumladan:</i>		
Dasturiy ta'minotni nashr qilish bo'yicha xizmatlar	407,9	2,5
Telekommunikatsiya xizmatlari	10 623,9	67,4
Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar	2 941,2	18,7
Ma'lumotlarga ishlov berish, joylashtirish bo'yicha xizmatlar va o'zaro bog'liq xizmatlar; veb-portallar	911,0	5,8
Kompyuterlar va aloqa usukunalarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	887,6	5,6
Kontent va ommaviy axborot vositalari sektori	1 467,4	8,5
<i>shu jumladan:</i>		
Kitoblar, davriy nashrlar nashr qilish bo'yicha xizmatlar va boshqa noshirlik xizmatlari	328,1	22,3
Kino – videofilmlar va televideniye dasturlari ishlab chiqarish bo'yicha xizmatlar	143,2	9,8
Dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar	588,3	40,1
Boshqa axborot xizmatlari	407,8	27,8

Ta'lim sohasidagi xizmatlar (yanvar-sentabr)

O'sish sur'ati,
% da





Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm




Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2022- yil yanvar-sentabr)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da
Qoraqalpog'iston Resp.	492,7	120,0
Andijon	561,5	122,9
Buxoro	543,3	121,8
Jizzax	290,5	111,8
Qashqadaryo	421,0	125,9
Navoiy	214,6	125,1
Namangan	540,3	126,6
Samarqand	769,2	112,4
Surxondaryo	413,2	126,7
Sirdaryo	132,3	110,2
Toshkent	443,6	120,1
Farg'ona	779,2	124,5
Xorazm	341,1	110,7
Toshkent shahri	4 360,3	101,9

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (yanvar-sentabr)




Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2022- yil yanvar-sentabr)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da
Qoraqalpog'iston Resp.	97,1	110,2
Andijon	208,5	104,6
Buxoro	198,8	116,4
Jizzax	114,3	99,5
Qashqadaryo	142,0	103,0
Navoiy	96,1	120,3
Namangan	237,7	114,2
Samarqand	344,2	119,3
Surxondaryo	142,6	93,6
Sirdaryo	78,5	111,4
Toshkent	480,8	126,4
Farg'ona	348,7	109,9
Xorazm	153,4	113,5
Toshkent shahri	2 003,8	106,3

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (yanvar-sentabr)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2022- yil yanvar-sentabr)






Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar-sentabr)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da
O'zbekiston Respublikasi ¹⁾	253 840,0	115,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	7 439,2	116,4
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	12 640,5	111,5
Buxoro	11 400,4	117,0
Jizzax	5 844,3	114,7
Qashqadaryo	11 466,9	114,0
Navoiy	6 677,7	114,7
Namangan	10 707,6	116,0
Samarqand	16 396,2	115,1
Surxondaryo	9 298,1	114,3
Sirdaryo	3 690,1	114,4
Toshkent	18 519,5	112,4
Farg'ona	15 878,8	114,5
Xorazm	7 379,2	113,5
Toshkent shahri	97 252,9	117,4

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish darajasi aholining munosib turmush sifatini ta'minlash ko'rsatkichidir, chunki xizmatlar bozorining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omil bu – aholining real daromadlari va turmush darajasining o'sishi.




**Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan bozor
xizmatlarining
asosiy ko'rsatkichlari
(yanvar-sentabr)**


2022- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **7 141,1** ming so'mga yetdi. 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **113,0** % ni tashkil etgan.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan aholi jon boshiga xizmatlar hajmi **5 879,8** ming so'mni tashkil etgan.

**O'sish sur'ati,
% da**




**Xizmatlar hajmi,
trln. so'm**



2022-yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha bu ko'rsatkich Toshkent shahrida **33 555,4** ming so'mdan Qashqadaryo viloyatida **3 338,4** ming so'mgachani tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar-sentabr)



2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

382 767 birlik


30 992 birlik

2021- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi

2021- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

108,8 %

2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik tadbirkorlik subyektlari (yanvar-sentabr)



Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi
Tel.: 71-202-80-59 (61)